



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI


*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*

PRESS-RELIZ



2022 - yil yanvar-dekabr


O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr



Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha oylik ish haqi hududlar kesimida

qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-dekabr, ming so‘mda









▲▲▲
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish, % da

Hududlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi dinamikasi


qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-dekabr, ming so‘mda

2022 - yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichlari **Toshkent shahrida** (6 314,4 ming so‘m), **Navoiy viloyatida** (5125,3 ming so‘m), **Toshkent viloyatida** (3 946,9 ming so‘m), **Andijon viloyatida** (3 381,8 ming so‘m) hamda **Buxoro viloyatida** (3 310,0 ming so‘m) kuzatildi.




Hududlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi dinamikasi


qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-dekabr, ming so‘mda




● Samarqand viloyati




● Surxondaryo viloyati




● Sirdaryo viloyati



● Toshkent viloyati



● Farg‘ona viloyati



● Xorazm viloyati




● Toshkent shahri

2022 - yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori o‘sish sur‘atlari **Toshkent shahrida** (128,2 %), **Xorazm viloyatida** (123,1 %), **Andijon viloyatida** (122,6 %), **Surxondaryo viloyatida** (122,0 %), **Samarqand viloyatida** (121,7 %) hamda **Namangan viloyatida** (120,6 %) kuzatildi.


Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan hududlardagi o‘rtacha oylik ish haqi,

yanvar-dekabr holatida, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xodimlar sonining jamiga nisbatan ulushi

Korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz) mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan, o‘rtacha oylik ish haqini hisoblashda hisobga olinganlar, yanvar-dekabr holatida



MA'LUMOT
UCHUN

Barcha yuridik shaxslar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari bilan birga, yanvar-dekabr)



Izoh: 2022-yil uchun ma‘lumot kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklari hisobot taqdim etganidan so‘ng shakllantiriladi.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori dinamikasi, so‘mda


1 000 000

900 000

800 000

700 000

600 000



Batafsil
ma‘lumot olish uchun
QR-koddan foydalaning:



Ma‘lumot uchun: Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga 2022 - yil 1 - iyundan o‘zgartirish kiritildi hamda **920,0 ming so‘mga** yetkazildi.


2022 - yil yanvar-dekabr oylari uchun o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini shakllantirishda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo‘jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o‘rinlarda – o‘rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo‘shimcha to‘lovlar, mukofot pullari, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to‘lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.


O‘rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi,

yanvar-dekabr, ming so‘m




Ba’zi tarmoqlar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbati,

yanvar-dekabr, %da,




Yillar kesimida nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari bilan birga) va iste‘mol narxlarini indeksi ko‘rsatkichlari,

yanvar-dekabr, %da




2022 - yilda o‘rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



O‘rtacha oylik ish haqi


iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m



2022 - yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi – **bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga** to‘g‘ri kelib, 10 817,1 ming so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, **axborot va aloqa sohasi** 7 556,4 ming so‘mni, **tashish va saqlash sohasi** 5 079,8 ming so‘mni va **sanoat sohasi** 4 920,0 ming so‘mni tashkil etib, o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. **Ta‘lim** (2 695,4 ming so‘m) hamda **sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** (2 611,7 ming so‘m) sohalari esa boshqa sohalarga nisbatan eng quyi pog‘onalarda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

SANOAT SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi,

yanvar-dekabr, ming so‘m



2 431,5

Suv bilan ta‘minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilizatsiya qilish



4 786,3

Ishlab chiqarish
sanoati



5 703,4

Elektr, gaz, bug‘
bilan ta‘minlash va
havoni konditsiyalash




7 126,6

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i** (7 126,6 ming so‘m), **elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash** (5 703,4 ming so‘m) hamda **ishlab chiqarish sanoatida** (4 786,3 ming so‘m) kuzatildi.


Sanoat sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi,

yanvar-dekabr holatida, ming so'm



Hududlar kesimida,

yanvar-dekabr, ming so'm



● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,

yanvar-dekabr, ming so'm




○ o'sish




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Navoiy viloyati** (7444,7 ming so'm), **Toshkent shahri** (5564,1 ming so'm), **Toshkent** (5072,7 ming so'm), **Andijon** (4812,8 ming so'm) hamda **Qashqadaryo viloyatlarida** (4676,0 ming so'm) kuzatildi.

QURILISH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m




Qurilish faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent viloyati** (6 803,9 ming so‘m), **Toshkent shahri** (5 350,5 ming so‘m) hamda **Navoiy viloyati** (5 178,9 ming so‘m)da qayd etildi.

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



SAVDO SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Savdo sohasining asosiy tarmoqlari

bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,

yanvar-dekabr, ming so'm



3 649,7

Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo



4 267,0

Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo



4 832,4

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash




5 467,9


Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosida** (5 467,9 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdoda** (3 649,7 ming so'm) kuzatildi.

Savdo sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m




Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m




● o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



Savdo faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent shahri** (4 681,3 ming so‘m), **Buxoro viloyatlarida** (3 663,7 ming so‘m) va **Jizzax viloyatlarida** (3 402,7 ming so‘m) kuzatildi. Yuqori o‘shish sur‘ati **Surxondaryo viloyatida** (160,2 %), **Buxoro viloyatida** (145,3 %), **Toshkent shahrida** (124,8 %) va **Qashqadaryo viloyatida** (121,2 %) qayd etildi.

TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-dekabr holatida



8 456,6 *ming so'm*

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



4 634,1 *ming so'm*

Quruqlikdagi va quvur transporti




2 407,4 *ming so'm*

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyatida** (8 456,6 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **pochta va kuryerlik faoliyatida** (2 407,4 ming so'm) kuzatildi.


Tashish va saqlash sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m




O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Xorazm viloyati** (6 488,4 ming so‘m), **Toshkent shahri** (6 069,2 ming so‘m), **Buxoro viloyatida** (5 270,9 ming so‘m) kuzatildi. Yuqori o‘shish sur‘ati **Jizzax viloyatida** (77,3 %), **Sirdaryo viloyatida** (72,7 %), **Toshkent viloyatida** (50,0 %) va **Xorazm viloyatida** (36,5 %) qayd etildi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, yanvar-dekabr

Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

13 954,8
ming so‘m



9 488,7
ming so‘m

Axborot
xizmati ko‘rsatish
sohasidagi faoliyat

Aloqa
sohasi

6 924,5
ming so‘m




6 584,3
ming so‘m


Noshirlik
faoliyati

Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarda** (13 954,8 ming so‘m), eng past ko‘rsatkich esa **noshirlik faoliyatida** (6 584,3 ming so‘m) kuzatildi.

Axborot va aloqa sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m




Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m




● o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent shahri** (9144,7 ming so‘m), **Samarqand viloyati** (4849,3 ming so‘m) hamda **Jizzax viloyatida** (4696,5 ming so‘m) kuzatildi. Yuqori o‘shish sur‘ati **Toshkent** (53,0 %), **Farg‘ona** (42,4 %), **Buxoro** (42,0 %), **Samarqand viloyatlarida** (41,0 %) qayd etildi.

BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, yanvar-dekabr



10 845,2 ming so‘m

Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar



10 302,9 ming so‘m

Majburiy ijtimoiy sug‘urtalashdan tashqari, qayta sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari faoliyati




12 272,5 ming so‘m


Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyat

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyatda** (12 272,5 ming so‘m) eng past ko‘rsatkichi esa **majburiy ijtimoiy sug‘urtalashdan tashqari, qayta sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari faoliyatida** (10 302,9 ming so‘m) kuzatildi.


Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so'm



Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so'm




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so'm



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (14 254,1 ming so'm), **Andijon** (9 782,6 ming so'm), **Xorazm** (9 096,0 ming so'm) va **Buxoro** (8 874,1 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Surxondaryo viloyatida** (155,1 %), **Farg'ona viloyati** (136,2 %) hamda **Andijon viloyatida** (135,4 %) qayd etildi.

TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-dekabr holatida

Oliy
ta'lim

6 121,2
ming so'm



2 717,4
ming so'm

Umumiy
o'rta ta'lim

Texnik va
professional ta'lim

2 644,5
ming so'm




1 539,2
ming so'm


Maktabgacha
ta'lim

Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **oliy ta'limda** (6 121,2 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **maktabgacha ta'limda** (1 539,2 ming so'm) kuzatildi.

Ta’lim sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m




Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m




● o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m




Ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent shahri** (4 271,6 ming so‘m), **Andijon** (2 688,0 ming so‘m) hamda **Sirdaryo viloyatlarida** (2 680,0 ming so‘m) kuzatildi. Yuqori o‘sish sur‘ati **Toshkent shahrida** (124,0 %), **Samarqand** (117,6 %), **Navoiy** (117,5 %) hamda **Xorazm viloyatlarida** (117,4 %) qayd etildi.

SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida,

yanvar-dekabr, ming so‘m




o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish


Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent shahri** (3 039,7 ming so‘m), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (2826,0 ming so‘m) hamda **Samarqand viloyatida** (2 802,6 ming so‘m) kuzatildi. Yuqori o‘shish sur‘ati **Samarqand** (37,7 %), **Navoiy** (28,7 %) hamda **Jizzax** (25,9 %) viloyatlarida qayd etildi.

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,


yanvar-dekabr, ming so‘m



YASHASH VA OVQATLANISH BO‘YICHA XIZMATLAR SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m




Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent shahri** (3 648,6 ming so‘m), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (3064,5 ming so‘m) hamda **Surxondaryo** (2 886,5 ming so‘m) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o‘shish sur‘ati **Toshkent shahrida** (132,2 %) **Sirdaryo viloyatida** (131,5 %) va **Qoraqalpog‘iston Respublikasida** (128,6 %) qayd etildi.


O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



SAN‘AT, KO‘NGIL OCHISH VA DAM OLISH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida, yanvar-dekabr, ming so‘m



San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasining faoliyati turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi **Toshkent** (4 955,6 ming so‘m), **Namangan viloyatlarida** (3 943,4 ming so‘m) hamda **Toshkent shahrida** (3406,4 ming so‘m) kuzatildi. Yuqori o‘shish sur‘ati **Namangan** (137,1 %), **Samarqand** (136,0 %) hamda **Farg‘ona** (128,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-dekabr ming so‘m



O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI BO‘YICHA STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlar soni – oyni ma’lum bir sanasiga, ya’ni birinchi yoki oxirgi sanasiga ko‘rsatiladi. Bunda haqiqatda ishlayotganlar, vaqtincha ishlayotgan, biroq ishga rasman birlashtirilganligi huquqini saqlab qolganlar ham hisobga olinadi. Bitta tashkilotning ichida ichki o‘rindosh sifatida rasmiylashtirilgan xodim bir kishi sifatida hisobga olinadi. Mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlar tarkibiga quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 11, 83, 102, 119, 150, 159, 160, 165, 229, 236, 242, 254 – moddalarida keltirilganlar va boshqa mehnatga oid qonunchilik va me’yoriy hujjatlarda keltirilganlar kiritiladi.

Quyidagi xodimlar mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan xodimlar tarkibiga kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o‘rindoshlik bo‘yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ish bajaruvchilar; tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta’lim muassasalariga yuborilganlar.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Hisobot oyini qo‘shgan holda, yil boshidan hisobot davridagi xodimlarning o‘rtacha soni o‘tgan jami oylardagi xodimlarning o‘rtacha oylik sonini qo‘shish va olingan summani hisobot davridagi oylar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.



**DEMOGRAFIYA VA MEHNAT
STATISTIKASI BOSHQARMASI**



Tel.: 71 203 80 00 (ichki 1240)



z.yuldoshev@stat.uz

PRESS-RELIZ

